

Buyurtmachi tomonidan davlat ekologik ekspertizasiga taqdim etiladigan materiallar

a) I, II, III toifalarga mansub faoliyat turlari obyektlari loyihalashtirilayotganda (loyihaoldi va loyiha hujjatlarining atrof-muhitga ta'sirini baholash, maxsus rejimli obyektlar) – atrof-muhitga ta'sirni baholash bo'yicha:

– obyektning moliyalashtirishga qadar mo'ljallanayotgan yoki rejalashtirilayotgan faoliyat va boshqa faoliyatni amalga oshirish bosqichida bajariladigan atrof-muhitga ta'sirni baholash to'g'risidagi ariza loyihasi;

– atrof-muhitga ta'sir to'g'risidagi bayonot loyihasini davlat ekologik ekspertizasi o'tkazish natijalari bo'yicha qo'shimcha qidiruv ishlari, tadqiqotlar, maxsus laboratoriya tahlillari, modeli tajribalarni amalga oshirish va dalillar bilan asoslangan tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini ishlab chiqish zarurligi aniqlangan taqdirda, amalga oshiriladigan atrof-muhitga ta'sir to'g'risidagi bayonot;

– obyekt foydalanishga qabul qilinguniga qadar bajariladigan va loyihalashtirilayotgan obyektlarning atrof-muhitga ta'sirini baholashning yakunlovchi bosqichi hisoblangan ekologik oqibatlar to'g'risidagi bayonot taqdim etiladi.

Atrof-muhitga ta'sir to'g'risidagi bayonot davlat ekologik ekspertizasi obyektining texnik-iqtisodiy asoslanishi tasdiqlanganiga qadar taqdim etiladi, bunda atrof-muhitga ta'sir to'g'risidagi bayonotni ishlab chiqish zarurati atrof-muhitga ta'sir to'g'risidagi bayonot loyihasini ko'rib chiqish natijalari asosida Markaz tomonidan aniqlanadi;

b) amalda faoliyat ko'rsatayotgan obyektlar uchun (atrof tabiiy muhitning holatiga va fuqarolarning sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ishlab turgan korxonalar va boshqa obyektlar) ekologik normativlar loyihalari taqdim etiladi.

– Agar amalda faoliyat ko'rsatayotgan obyekt rekonstruksiya, modernizatsiya qilingan, qayta tashkil etilgan, kengaytirilgan yoki joylashuvi o'zgartirilgan taqdirda, atrof-muhitga ta'sir baholanadi va atrof-muhitga ta'sirni baholash to'g'risidagi ariza loyihasi ishlab chiqiladi;

v) boshqa obyektlar bo'yicha:

– chiqindilarni zararsizlantirish, qayta ishlash va utilizatsiya qilish uchun yangi turdagi texnologiyalarni hamda texnika vositalarini, materiallar, buyumlarni, biologik, kimyoviy moddalarni va vositalarni yaratish bo'yicha hujjatlar;

– tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan xo'jalik faoliyatini hamda boshqa faoliyatni tartibga soluvchi normativ-texnik va yo'riqnomas-ustubiy hujjatlar, shu jumladan, texnik reglamentlar va shartlarning, standartlarning, qoidalar hamda yo'riqnomalarning loyihalari.

Davlat ekologik ekspertizasini o'tkazish muddatlari

I toifa faoliyat turlari obyektlari uchun — 25 ish kuni

II toifa faoliyat turlari obyektlari uchun — 25 ish kuni

III toifa faoliyat turlari obyektlari uchun — 15 ish kuni

Davlat ekologik ekspertizasini o'tkazish uchun haq to'lash

I toifa uchun — BHMning 25 baravari;

II toifa uchun — BHMning 15 baravari;

III toifa uchun — BHMning 3,9 - 7,5 baravari

Atrof-muhitga ta'sirni baholash materiallari va ekologik normativlar loyihalari davlat ekologik ekspertizasini o'tkazish uchun Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali elektron hujjat shaklida taqdim etiladi.

Atrof-muhitga ta'sirni baholash loyihani ishlab chiquvchilar tomonidan o'tkaziladi.

Davlat ekologik ekspertizasini o'tkazish muddati davlat ekologik ekspertizasining qiymati to'liq to'langandan keyingi ish kunidan e'tiboran hisoblanadi.